



2025-yil 17-oktabr, 213-son

JARAYON

YANGI O'ZBEKISTON



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

MAHALLA – FUQAROLIK JAMIYATINING TAYANCHI

Munosabat



Azamat PARDAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati

Boshlanishi 1-betda

Shunday bo'lsa-da, ayrim hududlardagi “mahalla yetiligi”da yagona jamoa bo'lib ishlash madaniyati yetarlicha shakllanmagani bilan bog'liq holatlar ham kuzatilmoqda.

Prezidentimiz raisligida mahalla tizimidagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish hamda joylarda ishlarni samarali tashkil etishga oid videoselektor yig'ilishida bu haqda ma'lum qilindi. Davlatimiz rahbari tizimda erishilgan natijalarni yanada mustahkamlashga e'tibor qaratib, qator yangi tashabbuslarni ilgari surdi.

Jumladan, hududlarda infratuzilmani rivojlantirishga manzilli yondashuv asosida respublikadagi 33 ta tuman va 330 ta “og'ir” mahalla alohida dastur asosida qo'llab-quvvatlanishi, har bir tumanga 100 milliard so'mdan, har bir mahallaga esa 5 milliard so'mdan mablag' ajratilishi e'lon qilindi. Shuningdek, Jahon banki va Islom taraqqiyot bankidan jalb etilgan 100 million dollar ham aynan shu maqsadga yo'naltirilishi, umuman olganda, dasturni moliyalashtirish uchun 7 trillion so'mdan ortiq resurs yo'naltirilishi ta'kidlandi.

Bu mablag'lar infratuzilma rivojiga o'ziga xos impuls beradi. Yo'llar, ichimlik suv tarmoqlari, ijtimoiy obyektlarni barpo etish bilan birga odamlarda ishonch va tashabbus muhitini yaratish hamda kuchaytirishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda “Tashabbusli budjet” loyihasi ham yanada takomillashmoqda. Endi mahalla aholisi yo'l, maktab yoki bog'chani ta'mirlay boshlasa, xarajatning yarmini davlat qoplashi, kelgusi yilda 1000 ta shunday fuqarolik tashabbuslariga 500 milliard so'm ajratilishi ta'kidlandi.

Bundan tashqari, “Eng yaxshi soliq to'lovchi mahalla” reytingi joriy etiladi. Yer va mol-mulk solig'ini o'z vaqtida to'lagan eng ilg'or 100 mahalla infratuzilma xarajatining 75 foizi davlat hisobidan qoplanadi va har

biriga qo'shimcha 2 milliard so'm beriladi. Bu tizim fuqarolarning faolligini oshirish bilan birga mahallalar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantiradi.

Qonunchilik palatasi deputatlariga o'z okrugidagi mahallalar infratuzilmasini yaxshilash uchun 3 milliard so'mdan mablag' ajratilishi aytib o'tildi. Bu mexanizmining amaliyotga tatbiq etilishi ham mahalliy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashdagi muhim qadamdir. Shuningdek, yig'ilishda mahallalarning ixtisoslashuvini kuchaytirish, ularning moliyaviy mustaqilligini mustahkamlash bo'yicha ham tashabbuslar bildirildi.

Bugun mahalla nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy tizimning ham muhim bo'g'iniga aylanmoqda. Shu kunga qadar 7000 ga yaqin mahalla meva-sabzavotchilik, gulchilik, asalarichilik, tikuvchilik, mebelsozlik, savdo va xizmat ko'rsatish kabi 15 yo'nalishtga ixtisoslashdi. Natijada 1,5 million oila doimiy daromad manbaiga ega bo'ldi. Shu bilan birga, hali 2300 dan ortiq mahallada

e'tibor qaratish bo'yicha respublika bo'ylab “Tozalik va ozodalik oyligi” e'lon qilinib, hokimlar va “mahalla yettiliklari” tomonidan 24 soatlik tozalash brigadalari tashkil etilishi, “Toza hudud” korxonalari va ichki ishlar organlari bu jarayonga to'liq safarbar etilishi ham aytib o'tildi.

Shuningdek, Prezidentimiz “mahalla yettiliklari”ni, nuroniyalar va keng jamoatchilikni yoshlar tarbiyasi va oilaviy munosabatlarga oid muammolarning oldini olish borasida faollikka, oilaviy barqarorlikni ta'minlash uchun profilaktika va targ'ibot ishlarini kuchaytirishga chaqirdi.

Davlatimiz rahbari mahallaning islohotlar ostonasi sifatidagi rolini mustahkamlash uchun natijaga yo'naltirilgan boshqaruv madaniyati zarurligini ta'kidlab, “yettilik” faoliyatini baholaydigan yagona tizim joriy etilishi, yil yakunida eng yaxshi 10 ta “yettilik” mukofotlanishi, har oy “mahalla yettiligi” o'z faoliyati bo'yicha aholiga hisobot berib borishini qayd etdi. Bu orqali



ixtisoslashuv pastligi, har bir mahallada aholi salohiyatidan kelib chiqib, aniq yo'nalisht belgilash, kamida 200 ming kishini band qiladigan mikroloyihalarni ishlab chiqish vazifasi mutasaddilarga yuklatildi.

Bundan tashqari, mahallalarga bo'sh turgan davlat binolarini auksionga chiqarish vakolati berildi. Sotuvdan tushgan mablag'ning 70 foizi mahalla ixtiyorida qolib, infratuzilmaga sarflanishi ta'kidlandi. Bu esa mahallalarning moliyaviy mustaqilligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, xususiy sheriklik asosida qurilgan 1000 ga yaqin zamonaviy mahalla binolarida faoliyat yurituvchi tadbirkorlar — shaharlarda 3 yil, qishloq hududlarida esa 7 yil muddatga yer va mulk solig'idan ozod etilishi mahalla infratuzilmasini rivojlantirish bilan birga xususiy sektor faolligini yanada rag'batlantirishga hissa qo'shadi.

Yig'ilishda mahallalarning ozodalik, sanitariya va ekologik holatiga alohida

jamoatchilik nazorati va ochiqlik madaniyati mustahkamlanadi.

O'zbekistonda mahalla institutiga yangi imkoniyatlar berish orqali o'zini o'zi boshqarishni yanada chuqurlashtirish, fuqarolarning jamiyat hayotidagi faolligini oshirish, pirovardida barqaror taraqqiyot yo'nalishiga olib chiqadigan samarali tizim yaratiladi.

Bu jarayon esa davlatimiz rahbarining ta'biri bilan aytganda, “Islohotlarimizning ostonasi bo'lgan har bir mahallaga Yangi O'zbekiston nafasini olib kirish, eng avvalo, “mahalla yettiligi”ning yagona jamoa bo'lib ishlashga bevosita bog'liq”.

Mazkur g'oya mahalla institutining yangi missiyasini belgilaydi. Endi u faqat ijtimoiy masalalarni hal qiluvchi tuzilma emas, balki fuqarolik mas'uliyati, iqtisodiy faollik va ma'naviy yuksalish markaziga aylanishi zarur.

iqtisodiy va oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini ta'kidlagan.

Ushbu omillar jahon bozorida nosog'lom raqobatning kuchayishi, energiya manbalari narxining oshishiga olib kelmoqda. Shuningdek, energetika va transport sohalarida milliy va xalqaro loyihalarni amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda.

O'zbekiston to'sqinlik o'z murojaatida shunday murakkab sharoitda MDHga a'zo davlatlar maxsus xizmatlari o'rtasidagi amaliy hamkorlikni yanada chuqurlashtirish, iqtisodiy, energetika va kommunikatsiya tizimlarini barqaror rivojlantirish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda ularning sa'y-harakatlarini birlashtirish muhimligini alohida ta'kidlagan.

Majlisda Hamdo'stlik makonida xavfsizlikni ta'minlash, shu jumladan, xalqaro terrorizm va ekstremizm, transmilliy uyushgan jinoyatchilik, axborot xavfsizligiga tahdidlar, shuningdek, gijohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy xalqaro aylanmasiga qarshi kurashish borasida hamkorlikni mustahkamlash, zamonaviy tahdidlar va o'zaro harakatlarni muvofiqlashtirishga oid keng qamrovli masalalar muhokama qilindi.

G'olib HASANOV,
O'za muxbiri

Markaziy Osiyo ruhi

DUNYO BILAN HAMJIHATLIK – BARQAROR RIVOJLANISH ASOSI

Mash'al SAIDOV,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

Bugun dunyoda geosiyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar shiddat bilan kechayotgan, turli tahlilalar kuchayib borayotgan bir paytda har bir davlat barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun o'ziga xos yo'l izlashi tabiiy. Bu borada yurtimizda yuritilayotgan tashqi siyosat alohida e'tiborga molik. Chunki O'zbekistonning tashqi siyosati pragmatizm, ochiqlik va o'zaro manfaatli hamkorlik prinsiplariga asoslangan. Shu bois, keyingi yillar yurtimiz tashqi siyosati uchun samarali va faol kechmoqda.



So'nggi yillarda mintaqa davlatlari bilan do'stona aloqalar yangi bosqichga ko'tarildi. Jahon siyosatida “Markaziy Osiyo ruhi” va “Markaziy Osiyo qiyofasi” kabi tushuncha hamda voqe'liklar paydo bo'ldi. Markaziy Osiyoda ishonch va sheriklikning yangi darajasiga erishilgani jadal o'zgarishlarga jo'shqin sur'at bag'ishladi. Joriy yil mart oyida O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston chegaralari tutashgan nuqtada Do'stlik stelsi o'rnatilgani o'rtamizda mustahkamlanib borayotgan yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarning yana bir tasdig'i bo'ldi.

“Yangi Markaziy Osiyo” konsepsiyasi real voqe'likka aylanmoqda. Mintaqada yagona transport-logistika makoni shakllanmoqda. Mintaqamiz jadal rivojlanib, iqtisodiy o'sish va investitsiyaviy faollik markazi sifatida namoyon bo'lyapti. Markaziy Osiyo olamshumul tarixiy imkoniyatlardan foydalanib, yaxshi qo'shnichilik va xavfsizlik, o'zaro manfaatli hamkorlik va barqaror taraqqiyot makonini yaratmoqda. Markaziy Osiyoni Sharq va G'arb, Shimol va Janub o'rtasidagi to'laqonli tranzit xabiga aylantirishga qaratilgan dastur va loyihalar amalga oshirilyapti. Natijada keyingi yillarda o'zaro savdo hajmi 4,5 barabar, investitsiyalar esa ikki barabar ko'paydi. Qo'shma korxonalar soni besh barabar ortdi. Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston temir yo'li qurilishi boshlandi. O'zbekiston — Turkmaniston — Eron — Turkiya transport yo'lagi orqali yuk tashish hajmi sezilarli darajada oshdi.

Faol va pragmatik tashqi siyosat tufayli O'zbekiston xalqaro siyosatning markazlaridan biriga va global g'oyalari tashabbuskoriga aylanmoqda. Shu yil 3-4-aprel kunlari Samarqandda Yevropa kengashi prezidenti

ko'tarilib, 2022-yilda qariyb 40 milliard dollar bo'ldi. Bu 2016-yildagiga nisbatan 50 foiz ko'p. “Boston Consulting Group” bashoratiga ko'ra, 2030-yilgacha Markaziy Osiyo 170 milliard dollarlik investitsiya jalb qila oladi. Shuning 40-70 milliard dollari xomashyo bo'lmagan sohalarga yo'naltiriladi.

“**Markaziy Osiyoda barqarorlik va birdamlik mustahkamlanmoqda. Mintaqamiz iqtisodiy o'sish va investitsion faollik markazlaridan biriga aylanmoqda, G'arbn Sharq va Shimolni Janub bilan bog'laydigan transport xabi bo'lishdek tarixiy vazifani yana o'z zimmasiga olmoqda.**

O'zbekiston tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlat rahbarlari ishtirokida Maslahatlashuv kengashi tashkil etilishi muhim o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Bu orqali yetakchilar bevosita mintaqada yig'ilib qolgan muammolar — iqtisodiyot, davlat chegaralarini aniqlash, xavfsizlik choralari, oziq-ovqat xavfsizligi, migratsiya kabi ko'plab muhim sohalarda hal qilinmay yotgan muammolarni yechishga yo'l ochildi. Mamlakatimiz Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Maslahat uchrashuvi mexanizmda mintaqaviy barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan dolzarb masalalar bo'yicha hamkorlik samaradorligini ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda.

Mintaqaning zamonaviy xalqaro munosabatlardagi o'mi mustahkamlanishi natijasida dunyoda yangi O'zbekistonga nisbatan ishonch ruhi va mamlakat bilan hamkorlikka intilish tamoyili kuchaydi. Azal-azaldan o'zaro qardosh va birodar mamlakatlar



“**Markaziy Osiyo davlatlari va xalqaro manfaatdor tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni ko'rib chiqayotganda “5+1” formatining ahamiyati ortib borayotganini qayd etish joiz. Ushbu amaliyot mintaqaviy bo'lmagan ishtirokchilarni hamkorlikka jalb etgani nuqtayi nazaridan muvaffaqiyatli tashabbusga aylandi.**

Antoniu Koshta va Yevropa komissiyasi prezidenti Ursula fon der Lyayen ishtirokida “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammiti o'tkazilgani buning yana bir isbotidir.

2016-yildan boshlab Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O'zbekiston tashqi siyosatida mislsiz faollik, o'zgarishlar davri boshlandi. Davlatimiz rahbari tashqi siyosiy faoliyatda Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan o'zaro do'stona, yaxshi qo'shnichilik munosabatlarni shakllantirishni ustuvor yo'nalisht etib belgiladi. Nisbatan qisqa davr ichida bu borada qilingan ishlarni xalqaro hamjamiyat ham tan olavypti.

O'zbekiston yetakchisining siyosiy irodasi bilan mintaqada hamjihatlik ruhi paydo bo'ldi. Qo'shnilar bilan hech qanday muammo bo'lmagligiga erishish eng muhim maqsad qilib qo'yildi. O'z xavfsizligini boshqa davlatlar xavfsizligi hisobiga mustahkamlashga yo'l qo'ymaslik, ochiqlik, pragmatizm va konstruktivlik, teng huquqlilik, o'zaro hurmat va manfaatlarini hisobga olish tamoyillari mintaqaviy siyosatning konseptual asosiga aylandi. Natijada Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy va siyosiy o'sishning o'ziga xos modellarni shakllantirishga muvaffaq bo'ldi. Masalan, oxirgi 7 yilda mintaqa iqtisodiyoti 6,3 foiz o'sib, YIM miqdori 450 milliard dollarga yaqinlashdi. Tashqi savdo aylanmasi ikki barabar ko'payib, qariyb 225 milliard dollarini tashkil etdi. 2016-2022-yillarda Markaziy Osiyoga investitsiya kiritilishi jahondagi umumiy hajmning 1,6 foizidan 2,8 foiziga

ko'pgina mintaqaviy va global masalalarda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sari birgalikda harakat qila boshladi.

Mustaqillikka erishilgan paytda Markaziy Osiyo davlatlarining umumiy yalpi ichki mahsuloti 47 milliard dollar atrofida edi. Oradan 34 yil o'tganda bu miqdor 10 barabardan ko'proq o'sib, 500 milliard dollarga yaqinlashdi. Milliy iqtisodiyotlar yuqori sur'atda rivojlanmoqda. 35 yil avval mintaqamizning 5 davlatida jami 50 milliondan ko'proq aholi yashagan. Bu raqam 2024-yil oxiriga kelib 80 milliondan oshdi. Eng asosiy, Markaziy Osiyoda barqarorlik va birdamlik mustahkamlanmoqda. Mintaqamiz iqtisodiy o'sish va investitsion faollik markazlaridan biriga aylanmoqda, G'arbn Sharq va Shimolni Janub bilan bog'laydigan transport xabi bo'lishdek tarixiy vazifani yana o'z zimmasiga olmoqda.

So'nggi yillarda mintaq mamlakatlarining umumiy ichki mahsuloti 40 foiz ko'paydi. Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida savdo hajmi barqaror o'sishi kuzatilmoqda. Masalan, tovar aylanmasi 2,5 barabardan ziyod oshdi. O'zaro investitsiya hajmi qariyb 6 karra, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi esa 45 foiz o'sdi. Bundan tashqari, ichki

mintaqaviy turizm ko'rsatkichlari 2 barabar ko'paydi.

Markaziy Osiyo muhim va noyob resurs, iqtisodiy va kommunikatsiya salohiyatiga ega hudud sifatida bugun mustaqil taraqqiyot yo'lida. Mintaqamiz davlatlari insonparvarlik, ijtimoiy adolat, umumiy xavfsizlik, millatlarga otuvlik, tinchlik va osoyishtalik muhitini yaratish kabi xalqaro huquq tamoyillari asosida tashqi siyosiy faoliyat yuritib, rivojlanayotgan mamlakatlar safiga dadil kirib bormoqda.

Vaholanki, bundan bor-yo'g'i sakkiz yil oldin chegaralarimiz deyarli to'liq yopilgan edi. Suv resurslari, yaylovlar va suv xo'jaligi obyektlaridan foydalanish masalalari bo'yicha tinimsiz tortishuvlar bor edi. Tarqoqligimiz bizni zaiflashtirar, birlashish istiqbollaridan mahrum etar, mintaq salohiyatini mushtarak manfaatlar yo'lida ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilardi. Bularning barchasi asrlar davomida yonna-yon tinch-totuv yashab kelgan, umumiy urf-odat va an'analarga ega bo'lgan, minglab ko'rinmas rishtalar bilan bog'langan Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy-sivilizatsiyaviy qadriyatlariga qimmatli ziddi.

Mamlakatimiz tashqi siyosatida namoyon bo'layotgan ko'p qirrali faoliyat, jumladan, xorijiy davlatlar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan o'rnatilayotgan diplomatik

munosabat, mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi dolzarb masalalar bo'yicha ilgari surilayotgan tashabbuslar, muloqotlar, birinchi navbada, xalqimiz tinch, xavfsiz yashashi, erkin faoliyat yuritishi, zamonaviy bilim olishi, yangi kasblarni egallashi, tadbirkorlik bilan shug'ullanishi uchun barcha shart-sharoitni yaratish, odamlar muhofazasini davlat tomonidan ta'minlashga qaratilgani bilan muhim ahamiyatga ega.

Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston kabi qardosh mamlakatlar bilan bir qatorda xalqaro hamjamiyat tomonidan doim xavf-xatar o'chog'i sifatida ko'rib kelingan qo'shni Afg'oniston bilan munosabat faollashdi. Ushbu davlatda tinchlik o'rnatish, Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalari o'zaro bog'liqligini ta'minlash respublikamiz rahbariyati tomonidan yuritilayotgan pragmatik tashqi siyosatning ijobiy natijasi ekanini bugun xalqaro hamjamiyat keng e'tirof etmoqda. O'zbekiston dunyoning yetakchi davlatlari, jumladan, Xitoy, Rossiya, AQSH, Turkiya, Vengriya, Yaponiya, Hindiston hamda arab davlatlari bilan ikki va ko'p tomonlama munosabatni strategik hamkorlik darajasiga ko'tardi.

Markaziy Osiyo davlatlari va xalqaro manfaatdor tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni ko'rib chiqayotganda “5+1” formatining ahamiyati ortib borayotganini qayd etish joiz. Ushbu amaliyot mintaqaviy bo'lmagan ishtirokchilarni hamkorlikka jalb etgani nuqtayi nazaridan muvaffaqiyatli tashabbusga aylandi. Ushbu strategik yondashuv mintaqaning siyosiy mavqei va iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishga yordam beradi va shu orqali uning kengroq Yevroosiyo kontekstida o'ziga xos qiymatini oshiradi. Global kuchlar bilan hamkorlikda ko'p qutbli va muvozanatli yondashuv Markaziy Osiyo uchun ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

Mamlakatimizdagi tub o'zgarishlar davrida qabul qilingan “O'zbekiston — 2030” strategiyasida bugungi kundagi tashqi siyosatning asosiy yo'nalishlari o'z ifodasini topgan. Strategiyada mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat sohasidagi sakkiz muhim yo'nalish belgilangan. Ayni maqsadlar qo'shni va yirik xorijiy davlatlar bilan hamkorlikni savdo-iqtisodiy va xalqaro xavfsizlik sohalarda rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish, iqtisodiyotga sarmoya, ilg'or texnologiya va ilmiy ishlanmalarlarni jalb etish, yurtimizga xorijiy sayyohlar oqimini oshirish hamda fuqarolarimiz huquqi va manfaatini himoya qilish, davlatimiz ijobiy imijini xalqaro maydonda yanada mustahkamlashga qaratilgani bilan ahamiyatli. Asosiysi, davlat manfaatli ta'minlanishda oid qoida va me'yorlar, maqsad, yo'nalish va vazifalardan kelib chiqib, xatti-harakatlar muayyan mantiq asosida olib borilyapti.

O'zbekiston tashqi siyosati, ayniqsa, yangi mintaqaviy diplomatiyasi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va gumanitar sohalardagi hamkorlikni yanada rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini har tomonlama muhokama qilishga imkon beradi. Sirasini aytganda, Markaziy Osiyo “yuragi”da joylashgan, mintaqaning barcha davlatlari bilan umumiy chegaraga ega bo'lgan davlat — O'zbekistonning zamonaviy taraqqiyot davrini umumiy rivojlanish asnosida mintaqadan ayro tasavvur qilish qiyin.

MDHGA A'ZO DAVLATLAR XAVFSIZLIK ORGANLARI VA MAXSUS XIZMATLARI RAHBARLARI KENGASHINING MAJLISI

16-17-oktabr kunlari Samarqand shahrida Mustaqil davlatlar hamdo'stligiga a'zo davlatlar xavfsizlik organlari va maxsus xizmatlari rahbarlari Kengashining 57-majlisi hamda MDHga a'zo davlatlar xavfsizlik organlari va razvedka xizmatlari rahbarlarining 21-majlisi o'tkazilmoqda.

Majlislarda ishtirok etish uchun O'zbekiston, Armaniston, Belarus, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iz, Tojikiston, Turkmaniston Respublikalari va Rossiya Federatsiyasi maxsus xizmatlari rahbarlari, shuningdek, MDH Ijroiya qo'mitasi va MDHga a'zo davlatlar Aksiterror markazi vakillari Samarqandga keldi.

16-oktabr kuni tadbir qatnashchilari dastlab Samarqand shahridagi xotira maydonida bo'lib, Motamsaro ona haykali poyiga gullar qo'ydilar. Yurt tinchligi va xavfsizligini ta'minlash yo'lida jon fido qilganlar xotirasi yodga olindi.

Shundan so'ng Mustaqil davlatlar hamdo'stligiga a'zo davlatlar xavfsizlik organlari va maxsus xizmatlari rahbarlari Kengashining 57-majlisi o'tkazildi.

Majlis avvalida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yig'ilish qatnashchilariga murojaatini O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati boshlig'i B.Qurbonov o'qib eshittirdi.

Murojaatda ta'kidlanganidek, mazkur Kengashning har yilgi majlislari terrorizm, ekstremizm, narkotrafik, uyushgan jinoyatchilik va boshqa zamonaviy tahdidlarga qarshi kurashishda hamkorlik qilish va tajriba almashish uchun mustahkam asos yaratdi.

Murojaatda davlatimiz rahbari Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlikka tahdid solayotgan bir qator omillarga alohida e'tibor qaratgan. Afg'onistondagi beqaror vaziyat, xalqaro terrorchi guruhlari faoliyati, gijohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasi va trans-chegaraviy uyushgan jinoyatchilik shular jumlasidan ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Shu bilan birga, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish va sun'iy intellektidan g'arazli maqsadlarda foydalanishning oldini olish bo'yicha hamkorlikni mustahkamlash muhimligi qayd etilgan.

Prezidentimiz global xavfsizlik masalasiga alohida to'xtalar ekan, mintaq atrofi va Yaqin Sharqda yuz berayotgan nizolar barchani chuqur tashvishga solayotgani, ular



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM
O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!





XALQARO DARAJAGA CHIQQAN milliy model



Naim O'BLUMURODOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti professori,
tarix fanlari doktori

Boshlanishi 1-betda

Beshinchidan, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi bilan manzilli ishlash yo'liga qo'yildi. Mazkur tizim tubdan isloh qilinib, ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Har bir tuman va shaharda 100 dan ortiq ijtimoiy xizmatlarni “bir darcha” tamoyili asosida ko'rsatadigan “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari ochildi. Har bir mahallada ijtimoiy xodim aholi bilan faol ishlamoqda.

Shu yilning o'zida 2 million 700 ming kishiga ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatildi. Ayniqsa, kambag'al oilalarning parvarishga muhtoj a'zolari uchun yangi ijtimoiy xizmatlar yo'liga qo'yilgani mehnatga layoqatli 50 ming fuqaroning ishlashi uchun imkoniyat yaratdi. Ijtimoiy xizmatlar sifati va qamrovini oshirish maqsadida Jahon banki bilan 100 million dollarlik loyiha boshlandi. Imkoniyati cheklangan bolalarni maktab va kasbiy ta'limga qamrab olish uchun alohida dasturlar amalga oshirilmoqda.

Oltinchidan, hududlarda infratuzilmani yaxshilash, odamlarga yashash uchun qulay sharoit yaratish ko'p o'lchovli kambag'allikni qisqartirishda muhim qadam bo'ladi. Shu maqsadda qariyb 3,5 million kishi yashaydigan sharoiti og'ir mingta mahallada infratuzilma yaxshilanmoqda. Kelasi yili mahallalarda infratuzilmani yaxshilash, ish o'rinlarini ko'paytirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga yana 400 million dollar ajratiladi. Bunda 32 tatanun va 328 ta og'ir mahalla tanlanib, ularni rivojlantirish bo'yicha alohida dastur qabul qilinadi. Shuningdek, 810 ta mahallada suv, kanalizatsiya tarmoqlari yotqizish, yo'l, maktab va bog'cha qurish bo'yicha 1,3 milliard dollarlik loyihalar amalga oshiriladi. Uy-joyga muhtoj va daromadli past aholiga ipoteka tizimidan foydalanish uchun har yili 200 million dollar subsidiya ajratiladi.

Yettinchidan, davlat xarajatingiz 70 foizdan ortig'i aynan barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun sarflanmoqda. Shu bilan birga, global miqyosda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun rivojlanayotgan davlatlarga yiliga 4 trillion dollardan ziyod mablag' zarur. Bunday sharoitda xavf-xatarlarni obyektiv baholash, moliyaviy resurslarni jalb qilish va samaradorligini oshirish bo'yicha “kambag'allikka qarshi kurashning yangi moliyaviy arxitekturasini”ga ehtiyoj sezilmoqda.

Ushbu masalalarga yechim topish maqsadida 2026-yilda Xiva shahrida xalqaro moliya institutlari, donor tashkilotlari va hamkor davlatlar ishtirokida konferensiya o'tkazilishi aytiladi. Xivada xalqaro konferensiya o'tkazish tashabbusi kambag'allikka qarshi kurashish, yangi moliyaviy arxitektura yaratishda muhim bosqichdir. Bu bilan mamlakatimiz nafaqat ichki siyosatda, balki global iqtisodiy munosabatlarda ham faol ishtirokchi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Namangon forumida 200 ga yaqin xalqaro ekspert ishtirok etib, islom moliyasi imkoniyatlari, biznes inkluzivligi va moliyaviy arxitektura kabi masalalarni muhokama qildi. Bu global yechimlarni izlashda O'zbekistonning tajribasi va tashabbuslari dunyo miqyosida qo'llanishi mumkinligini ko'rsatdi.

Shuningdek, infratuzilma rivojlanishi, mahallalarni obod qilish, ish o'rinlari ochish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash kabi yo'nalishlar aholining kundalik turmushi sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro ekspertlar bu yo'nalishlarning amaliy natijalari bilan qiziqishi, O'zbekiston modelini o'rganishga intilishi forumning ahamiyatini yanada oshirdi.

Mazkur xalqaro forum bugungi global iqtisodiy muammolar fonida beqiyos ahamiyatga ega. Unda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha milliy tajribalar, global yechimlar va istiqbollar muhokama qilindi. O'zbekistonning kambag'allikka qarshi yuritayotgan izchil siyosati xalqaro maydonda alohida e'tirof etildi.

Dunyoning global tashvishi

Dunyo ahli 2030-yilgacha butunlay kambag'allikni qisqartiramiz degan katta maqsad sari intilmoqda. Bu borada Barqaror

rivojlanish maqsadlari qabul qilingan bo'lib, undagi vazifalarning eng birinchisi kambag'allikni butunlay bartaraf etishdir. O'zbekiston ham ushbu harakatga qo'shilgan. Agar bu maqsadlar 2015-yilda tasdiqlangan bo'lsa, mamlakatimiz 2018-yilda yangi islohotlar jarayonida o'z oldiga BRM bo'yicha majburiyatlarni belgilab oldi. Shu asosda 2030-yilgacha kambag'allikni ikki barobar qisqartirish maqsad qilingan.

Biroq 2020-yilda mamlakatimizda kambag'allikni tugatish dasturi boshlanganda hatto milliy mezon ham mavjud emas edi. Shu bois, Jahon banki bilan hamkorlikda milliy kambag'allik mezonini ishlab chiqildi. Unga ko'ra, 2020-yilda aholining 23 foizi kambag'allik chizig'idan pastda yashardi. Bu ko'rsatkich 2024-yil yakunida 8,9 foizga, 2025-yilning yarim yilligida esa 6,8 foizga tushdi. Demak, O'zbekiston 2030-yilgacha belgilangan majburiyatni oldindan bajardi. Endi esa 2030-yilgacha kambag'allikni butunlay bartaraf etish bo'yicha yangi maqsad qo'yildi.

Bu jarayon mamlakatda nafaqat amaliy islohotlar, balki samarali hisobot tizimi yo'liga qo'yilganini ko'rsatadi. O'zbekiston xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda kambag'allikni o'lchashning aniq milliy mezonlarini joriy etdi va qisqa muddatda katta natijalarga erishdi.

Shu o'rinda iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga to'xtalib o'tsak. 2017-yilda yalpi ichki mahsulot aholi jon boshiga 1600 dollar edi. Bugun 3100 dollarga yetdi. 2026-yilda 100 milliard dollar YIMga erishish maqsad qilingandi, ammo bu natijaga 2024-yilda erishildi. Hozir bu ko'rsatkich 115 milliard dollarga yetdi. Ushbu raqamlar iqtisodiy o'sish barqarorligi va islohotlar samaradorligini yaqqol namoyon etadi.

BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasi doirasida o'tkazilgan “Kelajak bugundan boshlanadi: barqaror rivojlanish uchun ko'p o'lchovli kambag'allikka qarshi kurash” mavzusidagi tadbirida xalqaro tashkilotlar va ekspertlar O'zbekistonning kambag'allikni qisqartirish va islohotlar tajribasini yuqori baholadi. Ta'kidlanishicha, so'nggi yillarda mamlakat salmoqli natijalarga erishdi: kambag'allik darajasi deyarli uch baravar kamaydi, 7,5 million kishi kambag'allikdan chiqdi hamda kambag'allikni ko'p o'lchovli baholashning milliy metodologiyasi joriy etildi.

Kambag'allik nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy muammo hamdir. U insonning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishiga, ta'lim olish, eng zararli ofatlardan. Sekin-asta insonni

2020-yilda mamlakatimizda kambag'allikni tugatish dasturi boshlanganda hatto milliy mezon ham mavjud emas edi. Shu bois, Jahon banki bilan hamkorlikda milliy kambag'allik mezonini ishlab chiqildi. Unga ko'ra, 2020-yilda aholining 23 foizi kambag'allik chizig'idan pastda yashardi. Bu ko'rsatkich 2024-yil yakunida 8,9 foizga, 2025-yilning yarim yilligida esa 6,8 foizga tushdi.

Bugundan boshlanayotgan kelajak

Bugun davlatimiz rahbari tashabbusi asosida amalga oshirilayotgan islohotlar siyosiy, iqtisodiy, ma'muriy, ijtimoiy-ma'naviy sohalarini qamrab olishi bilan bir qatorda kambag'allikka ham butkul barham berishga xizmat qiladi. Kambag'allikka qarshi pul bilan emas, aql va bilim bilan kurashish kerak. Shuning uchun kambag'allarga “baliq emas, qarmoq berish”, ya'ni ularni bilimli qilish, kasbga o'rgatish va biznesga tortish eng to'g'ri yo'ldir. Prezidentimizning qayta-qayta takrorlaydigan **“Mening eng katta maqsadim — odamlarni boy qilish”** degan so'zlari zamirida aynan kambag'allikni tugatish maqsadi mujassam.



Kambag'allikdan chiqishning eng muhim yo'nalishlaridan biri — odamlarni kasbga o'rgatish. Chunki hamma ham biznes yuritib olmaydi. Ommaviy tarzda kredit ajratilishi ham vaziyatdan chiqishga imkon bermaydi. Kambag'allikni kamaytirish odamlarda tadbirkorlik ruhini uyg'otish, ichki kuch-quvvat va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinlari ochish bo'yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosat yuritish, demakdir.

Jamiyatda davlat yordamiga qarab o'tiradigan, boqimandalikka o'rganib qolganlar ham talaygina. Vaholanki, har bir oilaning o'ziga yarasha kam-kam o'sti, ehtiyojlari bo'ladi. Farzandlar o'sib-ulg'ayib oyoqqa turguniga qadar ularning ta'minoti bilan shug'ullanish kerak. Lekin oila boshlig'i tanbal va ishyoqmas bo'lsa, ortib boruvchi ehtiyojlar oxir-oqibat uni boshi berik ko'chaga olib kiradi. Endi u jamiyatdan, davlatdan noliy boshlaydi. Dangasalik illati qaysi xalqda ildiz otsa, albatta, zaiflashtiradi, taraqqiyot karvonidan ortda qoldiradi va vayron qiladi. Bekorchilik eng zararli ofatlardan. Sekin-asta insonni



ishdan chiqaradi, hayotini barbod etadi. Kambag'allik ayyb emas, ammo u yalqovlik tufayli bo'lsa, katta aybdir. Dunyoning obodligi esa faqat yaxshi amallar, mehnat va tadbir bilan hosil bo'ladi.

Kambag'allikni qisqartirishda aholi salomatligini himoya qilishning ham o'z o'ri bo'lib. Chunki xalq salomat bo'lsa, yurt boy bo'ladi. Odamlar dor-darmonga kamroq pul sarflaydi. Inson salomatligini muhofaza qilmay turib, imkoniyatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarib bo'lmaydi. Bundan tashqari, ta'lim orqali odamlarning savodini ko'tarish, bandligini ta'minlash mumkin. Bu borada ham amaliy ishlarga qo'l urildi. Farzandlarimizning bog'chalaridagi qamrovi 27 foizdan 78 foizga oshgani natijasida 1 million ayol ta'lim olish, kasb-hunar o'rganish va daromad topish imkoniga ega bo'ladi.

Innovatsion tarzda tashkil qilingan “Ishga marhamat” monomarkazlarida turli zamonaviy kasblar asosida yoshlarni ish bilan ta'minlash bosh masala etib belgilangan. Markaz faoliyatidagi eng muhim jihat qisqa muddatda yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori kasblarga tayyorlashdir. Monomarkazda qurilish, texnika, xizmat ko'rsatish, kompyuter va moliyaviy savodxonlik, xorijiy tillar bo'yicha mutaxassislar tayyorlash ko'zda tutilgan. O'quv kurslarida tadbirkorlik huquqi, bozor iqtisodiyoti, biznes yuritish qoidalar, soliqqa tortish asoslari, eksport va import operatsiyalari, marketing asoslari bo'yicha zamonaviy bilimlar berib boriladi.

Muammoning ilk yechimi

Keyingi yillarda yurtimizda yoshlar bilan ishlash bo'yicha dunyoda o'xshashi kam bo'lgan vertikal boshqaruv tizimi yaratilganini ta'kidlash lozim. Bu esa mahallalardagi yoshlar yetakchilari orqali qancha-qancha yigit-qizlarni kasb-hunarga o'qitish, bandligini ta'minlash, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq ko'plab masalalarni quyi bo'g'inning o'zida hal etish imkonini bermogda. Yoshlarni katta daromad keltiradigan kasblarga o'rgatish, yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan loyihalarni ko'paytirishga qaratilayotgan e'tibor tufayli kambag'allik ko'lami qisqarmogda.

Kambag'allikni qisqartirish sohasidagi o'ziga xos va boshqa mamlakatlardagidan tubdan farq qiladigan jihat — yurtimizda mahalla institutining mavjudligi. O'zini o'zi boshqarishning mazkur noyob tuzilmasi jamiyat boshqaruvining eng quyi tayanch bo'g'inidir. Shu sababli mahalladagi islohotlar aholi farovonligini ta'minlash va kambag'allikni

Xitoyning Shangan qishlog'i tajribasi kambag'al oilalarni qo'shma kooperatsiyalarga jalb etishni ko'zda tutadi. Bu yo'nalish baliqchilik, quvorchilik, chorvachilik, parrandachilik va asalarichilik kabi sohalarini qamrab oladi. O'zbekistonning 30 ta tumanida shunday loyihalar amalga oshirilishi rejalashtirilgan bo'lib, ularga 4000 ga yaqin uy xo'jaligi jalb etiladi. Loyihalar tadbirkorlik tashabbuslari va yetakchi fermerlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Bu esa kambag'al oilalarni qishloq xo'jaligi kooperativlariga jalb qilish va moliyalashtirish imkonini beradi.

Fupin modeli doirasida O'zbekistonda 10 mingdan ortiq kam ta'minlangan oilani jalb etgan holda 20 ming gektar o'rmonda maxsus o'simlik yetishtirish jarayoni boshlandi. Yerlar “mahalla yetiligi” tavsiyasi asosida ijaraga berilayotir, ko'chatzorlar tashkil etilmoqda va barqaror daromad manbalari yaratilmoqda.

Yurtimizda Sanszyanyuan milliy bog'ida amalga oshirilgan loyihaga o'xshash ekologik ijtimoiy farovonlikni yaratish modeli ham ishlab chiqilmoqda. Daraxt ekish bilan shug'ullanayotgan kam ta'minlangan oilalar uchun “Ekofal fuqaro” platformasi ma'lumotlari asosida subsidiyalarni tizimini joriy etish rejalashtirilmoqda. Kam ta'minlangan oilalar tomonidan ekiладigan har 100 tut daraxt uchun bir baravar bazaviy hisoblash miqdorida subsidiya ajratiladi. 1 gektar yer maydoni kam ta'minlangan oilalarga 5-6 yil muddatga ijaraga beriladi.

Xuamao qishlog'i tajribasi 53 mahallada turizmini rivojlantirish uchun qo'llanmoqda. Bu 1300 dan ziyod odamning bandligini ta'minlash va yiliga 2,5 million sayyohni jalb etishga qaratilgan. Shuningdek, Tyanchen tajribasi misolida murakkab hududlarda quyosh elektr stansiyalarini o'rnatish bo'yicha loyiha amalga oshirilmoqda. 300 ta mahallada jami 107,8 megavatt quvvatli energiya inshootlari qurilmoqda. Bu energetik barqarorlikni ta'minlash bilan birga yangi ish o'rinlari ochilishiga ham sabab bo'ladi.

Lunnan tajribasi asosida elektron savdoni qo'llab-quvvatlash tizimi joriy etilmoqda. Ehtiyojmand oilalardan bo'lgan 5000 yigit-qiz intensiv AT kurslarida ta'lim olmoqda, bepul internet bilan ta'minlayapti. Pochta bo'limlari negizida onlayn savdoni qo'llab-quvvatlash markazlari tashkil etilmoqda. Marketpleyslar bilan hamkorlik yo'liga qo'yilmoqda.

Loshan tumani tajribasi asosida kasbiy ta'lim va o'qitishni rivojlantirish doirasida O'zbekistonning yuqori darajada kambag'allik kuzatiladigan 28 tumanida

Buyuk o'zbek yo'li



2025-yil avvalida Prezidentimiz tomonidan Xitoy tajribasi asosida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha 32 yo'nalishda yangi yondashuvlarni joriy etish e'lon qilindi. O'tkazilgan tahlillar asosida ishlab chiqilgan aniq takliflar davlatimiz rahbarining joriy yil 17-yanvardagi “2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga kiritildi.

Ayni paytda Xitoyning Inshan tumanida qo'llangan “Kompaniya — kooperativ — ferma” modeli O'zbekistonda faol tatbiq etilmoqda. Ushbu tashabbus doirasida kambag'al oilalarga yer ajratilib, qishloq xo'jaligi kooperativlari tuzilmogda va barqaror ta'minot zanjiri yaratilyapti. Rejaga ko'ra, ijaraga berilgan yerlarda jami 492 ta kooperativ tashkil etiladi. Kooperativ a'zolariga o'z xo'jaliklarini rivojlantirish va kooperativlar ustav kapitaliga ulush kiritish uchun 10 baravarlik eng kam ish haqi miqdorida subsidiya ajratish ham rejalashtirilgan.

Xitoyning Shangan qishlog'i tajribasi kambag'al oilalarni qo'shma kooperatsiyalarga jalb etishni ko'zda tutadi. Bu yo'nalish baliqchilik, quvorchilik, chorvachilik, parrandachilik va asalarichilik kabi sohalarini qamrab oladi. O'zbekistonning 30 ta tumanida shunday loyihalar amalga oshirilishi rejalashtirilgan bo'lib, ularga 4000 ga yaqin uy xo'jaligi jalb etiladi. Loyihalar tadbirkorlik tashabbuslari va yetakchi fermerlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Bu esa kambag'al oilalarni qishloq xo'jaligi kooperativlariga jalb qilish va moliyalashtirish imkonini beradi.

Fupin modeli doirasida O'zbekistonda 10 mingdan ortiq kam ta'minlangan oilani jalb etgan holda 20 ming gektar o'rmonda maxsus o'simlik yetishtirish jarayoni boshlandi. Yerlar “mahalla yetiligi” tavsiyasi asosida ijaraga berilayotir, ko'chatzorlar tashkil etilmoqda va barqaror daromad manbalari yaratilmoqda.

Yurtimizda Sanszyanyuan milliy bog'ida amalga oshirilgan loyihaga o'xshash ekologik ijtimoiy farovonlikni yaratish modeli ham ishlab chiqilmoqda. Daraxt ekish bilan shug'ullanayotgan kam ta'minlangan oilalar uchun “Ekofal fuqaro” platformasi ma'lumotlari asosida subsidiyalarni tizimini joriy etish rejalashtirilmoqda. Kam ta'minlangan oilalar tomonidan ekiладigan har 100 tut daraxt uchun bir baravar bazaviy hisoblash miqdorida subsidiya ajratiladi. 1 gektar yer maydoni kam ta'minlangan oilalarga 5-6 yil muddatga ijaraga beriladi.

Xuamao qishlog'i tajribasi 53 mahallada turizmini rivojlantirish uchun qo'llanmoqda. Bu 1300 dan ziyod odamning bandligini ta'minlash va yiliga 2,5 million sayyohni jalb etishga qaratilgan. Shuningdek, Tyanchen tajribasi misolida murakkab hududlarda quyosh elektr stansiyalarini o'rnatish bo'yicha loyiha amalga oshirilmoqda. 300 ta mahallada jami 107,8 megavatt quvvatli energiya inshootlari qurilmoqda. Bu energetik barqarorlikni ta'minlash bilan birga yangi ish o'rinlari ochilishiga ham sabab bo'ladi.

Lunnan tajribasi asosida elektron savdoni qo'llab-quvvatlash tizimi joriy etilmoqda. Ehtiyojmand oilalardan bo'lgan 5000 yigit-qiz intensiv AT kurslarida ta'lim olmoqda, bepul internet bilan ta'minlayapti. Pochta bo'limlari negizida onlayn savdoni qo'llab-quvvatlash markazlari tashkil etilmoqda. Marketpleyslar bilan hamkorlik yo'liga qo'yilmoqda.

Loshan tumani tajribasi asosida kasbiy ta'lim va o'qitishni rivojlantirish doirasida O'zbekistonning yuqori darajada kambag'allik kuzatiladigan 28 tumanida

texnikumlar ochildi. Ushbu o'quv yurtlari ehtiyojmand oilalar farzandlarini bepul o'qitmoqda. Mazkur muassasalarda tadbirkorlik va kasbiy ko'nikmalar bo'yicha ta'lim berilmoqda. Kelgusida bitiruvchilarning amaliyot va ish bilan ta'minlanishini tashkil etish uchun 165 ish beruvchini jalb etish rejalashtirilgan.

Bundan tashqari, Szibo shahri tajribasi asosida O'zbekistonda aholining kam ta'minlangan qatlamlari uchun tibbiy xizmat ko'rsatish dasturi boshlandi. Ushbu tashabbus doirasida yaqin vaqtda 140 mingta kam ta'minlangan oilani, ya'ni taxminan 700 ming kishiga tibbiy xizmat ko'rsatish rejalashtirilgan. Aholi yashash joylarida 80 ming kam ta'minlangan oilani qamrab oladigan 10 mingta qo'shimcha uyma-uy tibbiy xizmat ko'rsatish punktlarini tashkil etish rejalashtirilgan. Kam ta'minlangan aholi qatlamlari uchun davlat kafolati ostida tibbiy xizmat ko'rsatish dasturi doirasida bepul diagnostika va davolash ko'zda tutilgan.

Xitoy tajribasining O'zbekistonda moslashuvi mexanik tusga ega emas. U mahalliy xususiyatlarni inobatga olib, samarali va barqaror yechimlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Shu tariqa Xitoy modeli O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va institutsional xususiyatlarini inobatga olgan holda moslashtirilmoqda. Bu xalqaro tajriba — mahalliy yechimlarni ilgari surishga xizmat qilayotgan strategik siyosatning namoyon bo'lishi sifatida kambag'allikni qisqartirish va ehtiyojmand qatlamlar imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

Kambag'allikdan farovonlik sari

Mamlakatimiz bo'ylab 2024-yil 1 noyabrdan boshlab “Kambag'al oilalar uchun yettita imkoniyat va mas'uliyat” tamoyili asosida barqaror bandlik va yuqori daromad topishga erishish, ta'lim olish va kasb-hunar o'rganish, kafolatlangan davlat tibbiy xizmati va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish, yashash sharoitini yaxshilash, davlat tomonidan mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish, davlat organlari xodimlari bilan to'g'ridan to'g'ri muloqot qilish tizimi yo'liga qo'yilishi belgilandi. “Kambag'allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo'yicha Respublika komissiyasi tashkil etilib, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda hududiy organlar respublika va hududiy komissiyalarning ishchi organlari etib belgilandi.

Prezidentimizning 2024-yil 23-sentabrda “Kambag'allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarorida bir qancha imtiyozlar belgilandi. Xususan, 2025-yildan boshlab kambag'al oila farzandlari davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga imtiyozli asosda qabul qilinishi, 2025/2026-o'quv yilidan boshlab kambag'al oilalar farzandlarining davlat oliy ta'lim muassasalarini talabalari turar joylaridagi yashash xarajati davlat byudjeti hisobidan qoplab berilishi, 2025-yildan boshlab “El-yurt umidi” jamg'armasi tomonidan kambag'al oilalarning farzandlari uchun alohida kvotalar ajratilishi, 2025-yil uchun uy-joy va ipoteka bozorini rivojlantirish dasturi doirasida ajratiladigan subsidiyalarning sonining 1,2 baravar oshirilishi shular jumlasidan.

“Kambag'allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida “Kambag'al oilalar reyestri” ishga tushirildi. Bugunga qadar 881 ming oilaning turmush sharoiti o'rganilib, 416 mingtasi “Kambag'al oilalar reyestri”ga kiritildi.

Tajriba tarqasida og'ir ahvoldagi oilalarni kambag'allikdan chiqarish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi tuman (shahar) tashkilotlarining 14 mingta rahbari va o'rinbosarlarining har biriga 6 oyda eng og'ir ahvoldagi 5 tadan kambag'al oila biriktirildi.

Yurtimizda kambag'allikni qisqartirish, kambag'al oilalar bilan ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha ko'rilayotgan ushbu manzilli chora-tadbirlar pirovardida aholi turmushi yanada farovonlashishiga hamda mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi.



 **Inson qadri uchun**



Sherzod Qoraboyev olgan suratlari.

YOZYOVONDA ODAMLAR HAYOTI HAM, DUNYOQARASHI HAM O'ZGARMOQDA

 **Boshlanishi 1-betda**

Yaqin yillargacha bu yer faqat paxta va g'allachilikka ixtisoslashgan, iqtisodiy rivojlanish jihatidan qoloq hududlardan edi. Endi bu yerdagi hayot tarzi o'zgardi. Keng va ravon yo'llar, zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlari qurildi. Xalq farovonligi va yurt obodligi yo'lidagi bunyodkorliklar nafaqat tuman markazi, balki olis qishloqlarda ham bo'y ko'rsatmoqda.

O'tgan yarim yilda Jahon banki investitsiyasi hisobidan "Suvliariq", "Guzarboshi", "Do'stlik", "Cho'lguliston", "Qo'rg'oncha" mahalla fuqarolar yig'inlaridagi 62,6 kilometr ichki yo'l asfaltlandi. Bundan tashqari, "Tashabbusli budget" doirasida 4 ta mahallada 13,5 kilometr ichki yo'lga asfalt yotqizildi, zaruratga qarab ta'mirlandi. Qo'zal qishloq va mahallalar, xizmat ko'rsatish sohalari mujassam bo'lgan majmualar, sport va dam olish inshootlari, bog'chalar, maktablar barpo etildi. Qo'yng'iki, yozovonliklar hayot tarzi uchun zarur qulay shart-sharoit yaratilmoqda.

Ishlab chiqarish korxonalari ko'paytirish, yangi loyihalarni qo'llab-quvvatlashga e'tibor oshdi. Joriy yilning shu davriga qadar 195,5 milliard so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarildi. Bu avvalgi yillarga qiyoslaganda 106,4 foiz ko'p demakdir. Xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi, investitsiya jalb etish borasida ham ijobiy natijalar qo'lga kiritilmoqda. Ayni kungacha bu yo'nalishlarda 91 tashabbus qo'llab-quvvatlandi.

Zarbdor tajribasi asosida qiymati 57,2 milliard so'mlik samarali loyihalar shakllantirildi. "Ijodkor" MFY hududidagi 47 fuqaro uchun 9,5 gektar yerda intensiv bog' tashkil etish, sug'orish tizimi bilan ta'minlash choralari ko'rilmog'da. "Toshhovuz", "Markaziy Farg'ona" va "Navro'z" MFYlar hududidan o'tgan ochiq melioratsiya zovurini yopish orqali yangi xizmat ko'rsatish va savdo obyektlari qurila boshladi.

— Bu yerda yengil konstruksiyali 60 dan ortiq savdo va xizmat ko'rsatish obyekti barpo etiladi, — deydi "Toshhovuz" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Usmonalixon Musayev.

— Shu kunga qadar umumiy qiymati 1 milliard 300 million so'mlikdan ortiq bunyodkorlik, obodonlashtirish ishlari bajarildi. Yangi loyiha sabab 130 dan ziyod ish o'rni ochiladi. Hududda tunu kun xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar faoliyati yo'lga qo'yilib, aholi farovonligi ta'minlanadi. "Yuqori Soybo'yi" MFY hududidan o'tgan "Toshkent — O'sh" yo'lining 371-373-kilometri oralig'ida ham xuddi shunday loyihani amalga oshirish bo'yicha yangi taklif tayyorlangan.

— Aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish bugunning dolzarb masalalaridan, — deydi tuman hokimi Dilshodjon Jalilov. — Shu kunga qadar barcha yo'nalishda 12 ming 867 ta yangi ish o'rni ochildi. Kambag'allikni qisqartirish maqsadida 3079 ta kambag'al oila bilan tizimli ishlar bajarilyapti. Og'ir holatdagi 400 ta oila tanlab olinib, 80 nafar rahbarga birkutirilgan. Ular har oyda ikki marta bu oilalar holidan xabar oladi. Ularning daromadini oshirish bo'yicha tizim yaratilib, 438 ta kambag'al oilaning ish bilan bandligi ta'minlandi. Kambag'allik darajasi 11,3 holatdan 8,1 foizga tushdi. Ikkinchi bosqichda og'ir holatdagi 305 ta oila 61 ta korxona va tashkilot rahbarlariga birkutirildi. Hozir ushbu xonadonlar o'rganilib, belgilangan reja asosida individual shug'ullanish chorasi ko'rilmog'da. Yil yakuniga qadar qo'shimcha 1443 ta oila kambag'allikdan chiqariladi. Natijada kambag'allik darajasi 5,7 foizga tushadi.

"Bir kontur — bir mahsulot" tamoyili asosida tijorat banklariga 4 ta konturda jami 40 gektar ekin maydoni birkutirilgan. U yerlarda eksportbop mahsulotlar ekilib, parvarishlanmoqda. Umuman, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohalarida umumiy qiymati 705,2 milliard so'mlik 127 ta loyiha ishga tushirilib, 623 ta yangi ish o'rni ochish nazarda tutilgan. Birinchi yarim yillik tahlillariga ko'ra, bu yo'nalishda 94 ta loyiha ishga tushirildi. Bog'chalarida 7000 tonna sig'imli 14 ta kichik muzlatkichli ombor, iqtisodiy samarasiz 127 gektar bog' o'rniida serhosil, etarpishar, eksportbop intensiv bog'lar barpo etilyapti.

Bundan tashqari, xorijdan investitsiya jalb etib, mahalliy xomashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqarish va eksport hajmini ko'paytirib, geografiasini kengaytirishga alohida e'tibor berilyapti. Hududiy dastur doirasida ishga

tushirilgan "Yazyavan Textile", "Argolid" hamda "Brend tekstil servis" MCHJ singari yangi sanoat korxonalarini eksportga jalb qilish orqali yil yakuniga qadar 10 million dollar qiymatidagi trikotaj mahsulotlari xorijga chiqariladi. Shu kunga qadar "Yozovon Ekspo" MCHJ korxonasi tomonidan Afg'onistonga 200 ming dollarlik qizil loviya eksport qilindi. "Besoft Export" MCHJ tashabbusi bilan mosh mahsulotlarini tashqi bozorga chiqarish chorasi ko'rilyapti. Yil yakuniga qadar 40 million dollardan ortiq mahsulot eksport qilinadi.

Qaddi baland imoratlar

Ko'lami keng islohotlar, avvalo, yozovonliklar turmush darajasini oshirish, har jihatdan qulay shart-sharoit yaratish imkonini beriyapti. "Yuqori Soybo'yi" mahalla fuqarolar yig'ini hududida barpo etilyotgan "Yangi O'zbekiston" massivida qurilish ishlari qizg'in pallaga kirgan.

Prezidentimizning 2021-yil 9-dekabrda "Yangi O'zbekiston" massivlarini qurish va hududlarning ijtimo-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ijrosi doirasida umumiy maydoni 65 gektar bo'lgan yangi shaharda 104 ta 3846 xonadonli uy-joy quriladi. Katta avtomagistral bo'yida qad rostlayotgan ko'p qavatli turar joy va maishiy binolar o'tgan-ketganning hayratiga sabab bo'lmoqda. Aytishlaricha, hududda yer osti sizot suv yaqin joylashgan. Shuning uchun har bir bino poydevorini quyishda mustahkamlikka e'tibor berilyapti. Poydevor izolyatsiyasi — himoya qatlami sifatli bajarilsa, inshootlar mustahkamligi ta'minlanadi.

— Shu kungacha 80 xonadonli 4 ta uy-joy, markazlashgan issiqlik ta'minoti binosi, 990 o'rinli maktab foydalanishga topshirildi, — deydi tuman hokimi o'rinbosari Dilmurad Bekmirzayev. — Bu yerda 7 qavatli 3 ta muhtasham uy-joy qurilishi ham boshlandi.

Qurilayotgan binolar tomiga quyosh suv isitish kollektorlari, quyosh elektr panellari o'rnatilmoqda. Bu uy-joylarda foydalaniladigan issiq suvning 25 foizi, elektr energiyasining

10-15 foizini tejash imkoniyatini beradi. Binolarning tashqi qismi bazalt bilan qoplanishi, sendvich paneldan tayyorlangan eshik-romlar xonadonlarning qishda issiq, yozda salqin bo'lishini ta'minlaydi.

— Bir necha yildirki, uysiz, ota-onam qaramog'ida yashab kelayotgandik, — deydi "Yangi O'zbekiston" turar joy massivida qurilgan xonadon sohibi Manzuraxon Mahkamova. — Tuman hokimligi va saxovatpesha insonlarning qo'llab-quvvatlashi tufayli bizga ikki xonali uy bepul berildi. Bundan tashqari, tuman tibbiyot bo'limiga hamshira bo'lib ishga joylashdim. Uyimiz fayzli, ko'rkam, barcha qulaylikka ega.

Bu yerda elektr, suv, gaz, kanalizatsiya uchun yangi tarmoqlar tortildi. "Mening bog'im" ijtimoiy loyihasi asosida ko'kalamzorlashtirish, yashil hududlar yaratish borasida amaliy ishlar bajarilyapti.

Chempionlar kamol topmoqda

Yozovonliklar sportga azaldan hamroh. Tumandan ko'plab chempionlar yetishib chiqayotgani, yoshlarning turli xalqaro musobaqalarda yuqori o'rin egallab kelayotgani fikrimiz dalildir. Joriy yilda tuman markaziy stadionida hamda unga yondosh sport maktabi binosi to'liq ta'mirlandi. Muayyan muddat qarovsiz holga kelib qolgan markaziy o'yingoh bugun yangidan chiroy ochdi. Futbol maydoni tartibga keltirilib, atrofiga zamonaviy o'ringdirlar o'rnatildi. Sun'iy qoplamali yo'laklar, voleybol va basketbol maydonchalari qurildi, chiroqlar o'rnatildi.

— O'tgan yili "Tashabbusli budget" loyihasining ikkinchi mavsumida g'olib bo'lib, 1 milliard 360 million so'm evaziga markaziy o'yingoh zamonaviy qiyofaga keltirildi, — deydi sport maktabi direktori Muzaffar Karimov. — Investitsiya dasturi orqali tuman sport maktabi uchun 4,5 milliard so'm ajratilib, to'liq ta'mirlandi. Qo'shimcha binolar, sport zali qurib berildi. Ayni kunlarda Sport vazirligi hamda tuman mahalliy budjeti mablag'i hisobidan ma'muriy bino qurilyapti.

YANGI O'ZBEKISTON

 **yuz**

Stadion va sport zalida yoshlar sportning 20 turi bilan mashg'ul. Ularning harakatidagi qat'iyat kishining havasini keltiradi. Tumanning turli hududidan kelib, to'garaklarga qatnashayotgan sportsevar yoshlar 3000 dan oshgan. Sport maktabi o'quvchilari erishayotgan natijalar ham quvonarli. Mazkur maktab o'quvchilari joriy yilning o'zida respublika chempionatlarida 35 ta medalga, jahon chempionatlarida 3 ta, Osiyo chempionati musobaqalarida 6 ta medalga sazovor bo'ldi. Olimpiya va milliy sport, parasport turlarida mahoratini oshirayotgan yoshlarning 19 nafari milliy terma jamoalarning asosi, 18 nafari zaxira tarkibiga kiritilgan. Jo'shqinbek Nabiye, Najmiddin Umarov, Ozdzbek Qalandarov belbog'li kurash bo'yicha jahon chempionatida qatnashib, bronza medal egasiga aylandi. Shuningdek, o'zbek jang san'ati, yengil atletika, chim ustida xokkey, futbol, gandbol, para stol tennis bo'yicha ham oltin, kumush, bronza medallar sohiblari yetishib chiqdi.

— Parij olimpiadasi chempioni Diyora Keldiyorovaga juda havas qilaman, — deydi tumandagi 3-maktab o'quvchisi, sport maktabining belbog'li kurash to'garagi a'zosi Dilbaroy Yoqubova. — Murabbiylarim

Prezidentimizning 2024-yil 23-sentabrda "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida mahallaga "O'z kimyosanoat" AJ birkutirildi. Shundan so'ng ishlar yuritish ketdi. Qaror asosida 3 milliard so'm ajratilib, 3,2 kilometr ariq betonlandi, 2 ta transformator, 195 ta tayanch beton ustun o'rnatildi. Bundan tashqari, 4,2 kilometr kabel tarmog'i tortildi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi tashabbusi bilan "Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish" loyihasi doirasida esa Jahon banki tomonidan 5 milliard 982 million so'm ajratildi. Natijada ichki yo'llarning 12 kilometri asfalt qilindi. Bundan tashqari, "Tashabbusli budget" asosida hududdagi 12-maktabda 1 milliard 360 million so'm evaziga sport majmuasi qurilib, foydalanishga topshirildi.

— Bugun mahallamiz eng obod va ko'rkam mahallaga aylandi. Mahalla ahlining dunyoqarashida yuksalish, ruhiyatida ko'tarinki kayfiyat bo'y ko'rsatmoqda. Ayniqsa, tomorqachilik, yerdan unumli foydalanishda odamlarimiz misha, — deydi "Suvliariq" MFY raisi



ko'magida jahon va olimpiada chempioni bo'lishni maqsad qilganman. Yaqinda viloyat birinchi ligi bellashuvlarida g'olib bo'ldim. Bu kelajakda ishonchimni oshirdi.

Hayotbaxsh islohotlar

O'rganishlar asosida "qizil" toifaga kiritilgan "Ishtirxon", "Yangiobod", "Suvliariq" MFYlardagi "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"da turuvchi fuqarolarga jami 500 million so'mlik 4 turdagi uy-ro'zg'or buyumlari tarqatildi. 24 ta oilaga esa quvvati 5 kilovatti — jami 125 kilovatt quvvatdagi quyosh panellari o'rnatish bo'yicha sertifikatlar topshirildi.

Homiylar taqdim etgan bu uy-ro'zg'or buyumlari fuqarolarning turmush tarzini, yashash sharoitini yaxshilash uchun xizmat qilmoqda. Xonadonlarga o'rnatiladigan quyosh panellari sabab oilalar ehtiyojidan ortgan energiyani davlatga sotib, foyda ko'rib, kambag'al oilalar bo'yaxtidan chiqaypti.

"Suvliariq" MFY ham "qizil" toifadagi mahallalar ro'yxatiga kiritilgan edi. Buning asosiy sababi ko'chalar asfaltlanmagani, elektr va ichimlik suv tarmoqlari qoniqsiz holatga kelib qolgani edi.

Alimardon To'rayev. — Mahallamizda aholi tomorqasi 58 gektarni tashkil qiladi. Bu yerda eksportbop, xaridorgir ekinlar ekish, shu orqali daromad topish bo'yicha targ'ibot ishlari olib boryapmiz.

— Ilgari tomorqani sug'orishda o'ziga xos qiyinchiliklar bor edi. Arizlar betonlangach, muammo barham topdi. Bu o'z-o'zidan dehqonchilik rivojiga zamin yaratdi, — deya subhbatga qo'shildi tajribali dehqon Doniyorjon Isroilov. — Bir qarashda limonchilik ko'p mehnat talab qiladigan yumush bo'lib ko'rinadi. Lekin agrotexnik tadbirlar o'z vaqtida bajarilsa, mehr berilsa, turgan-bitgani daromad manbai. O'tgan yili limondan 100 million so'm daromad qildik. Qo'ni-qo'shnilar, mahalladoshlar ham issiqxona qurish, limon, mandarin kabi sitrus o'simliklar va pomidor, bodring yetishtirishga kirishib ketgan.

Bir so'z bilan aytganda, aholi farovonligi, yurt obodligi yo'lidagi hayotbaxsh islohotlar mahalla, odamlar hayotiga mazmun olib kirmoqda, yangi g'oya, tashabbuslarga undamoqda.

Rasuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

OLIS HUDUDLARDAGI INVESTITSIYA LOYIHALARI

Surxondaryoda yangidan yangi ishlab chiqarish quvvatlari yaratilyapti.

Zamonaviy texnologiyalar asosida jahon standartlariga mos va

raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmoqda.

E'tiborlisi, bugun nafaqat shahar va tuman markazlarida, balki olis

hududlarda ham yirik investitsiya loyihalari hayotga tatbiq etilyapti. Bu esa viloyatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlamoqda.

Obod manzillar

Ma'lumotlarga ko'ra, bugun viloyatda umumiy pul aylanmasi 100 milliard so'mdan ortiq bo'lgan 40 ta yirik korxona faoliyat yuritmoqda.

— Uzoqqa bormaylik, bundan o'n yilning nari-berisida viloyatda umumiy pul aylanmasi 100 milliard so'mdan ko'p bo'lgan korxonalar barmoq bilan sanari edi, — deydi Surxondaryo viloyati hokimining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalarida bo'yicha yordamchisi Sherzod Yodgorov. — So'ngi yillarda ishlab chiqarish korxonalari soni sezilarli darajada ortib bormoqda. Nafaqat soniga, balki mahsulot sifatiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar esa xalqaro bozorda xaridorgir bo'lib, mamlakatimiz eksport salohiyatini yanada mustahkamlamoqda.

Birgina sanoat loyihasi o'rinli. Hozir Surxondaryoda 30 ga yaqin yirik sanoat ishlab chiqarish obyekti faoliyat

yuritmoqda. Ularning 12 tasi yengil, 18 tasi esa og'ir sanoat bilan mashg'ul. Jumladan, Sherobod tumanining Zarabog' qishlog'idagi "Komfort inert servis" MCHJ yiliga 300 ming kvadrat metr granit va gabbro (tog' jinsi) mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatiga ega. Ahamiyatlisi, mazkur pardozbop tosh qazib olish va qayta ishlash korxonasi butun mamlakatning qurilish sanoatida muhim o'rin tutadi. Ushbu qazib olish va ishlab chiqarish liniyasi 500 ming kvadrat metrdan ziyod maydonda joylashgan. U yerdagi tabiiy resurs marmar, oniks va shunga o'xshash pardozbop toshlarga muvobildir. Keyingi yillarda yirik qurilish loyihalarida mazkur mahsulotga ehtiyoj oshib bormoqda.

Bu manzil dengiz sathidan 1200 metr balandlikda joylashgan. Qazib olish ishlari boshlangan dastlabki nuqtadan shu kunga qadar 20 ming kub metr xomashyo



qazib olinib, undan 10 ming kub metrga yaqin tayyor mahsulot ishlab chiqarilgan.

— Granit toshi — o'ta mustahkam tog' jinsi. U asrlar davomida yomg'ir, sovuq havo va shamol ta'sirida yemirilmaydi, yuzlab darajali haroratga, kislota va tuz ta'siriga dosh bera oladi. Rang ham o'zgarmaydi. Bu xomashyoni qazib olish katta kuch, mehnat va maxsus texnikalardan foydalanishni talab etadi. Shu sabab kondagi qazish ishlari qadrdarli texnikalar jalb etilgan, — deydi MCHJ kon ishi boshqaruvchi rahbari Jumanazar Quvondiqov.

Tabiiy pardozbop toshni qazib olish va qayta ishlash jarayonida kon bilan ishlab chiqarish korxonasi orasidagi masofa muhim ahamiyatga ega. Chunki qazib olinayotgan granit singari og'ir va unan toshlarni uzoq masofaga yetkazish osan emas. Yurtimizdagi imkoniyatlar tadbirkorning bu boradagi masalaga ham osan yechim topishiga sabab bo'ldi. Kon yaqinidagi besh gektar yerda joylashgan bino anchadan



beri qarovsiz, tashlandiq holatda edi. Tadbirkor ushbu binoni "nol" xarid qiymatida oldi. Bu orqali uning xarajati qisqardi, logistika tizimi optimallashti.

Binolar to'liq rekonstruksiya qilindi. Konga olib boradigan yo'l qurildi. Elektr va suv uchun tarmoqlar tortildi. Shu tariqa uzluksiz va samarali ishlab chiqarish jarayoni tashkil etildi. Loyiha doirasida hudud ham obod bo'ldi. Jumladan, zavodga olib boradigan yo'l qayta ta'mirlandi. Zamonaviy standartlarga javob beradigan yangi ko'priklar qurildi. Ilgari eski ko'priklar yomg'irning qayishib ketishidan shalqonsoydan o'tish xatarli edi. Shunga qaramay, aholi shu yerdan o'tib qaytishga majbur edi. Chunki ko'priklar tog'li hududdagi beshta mahallani o'zaro bog'laydigan yagona transport yo'lidir.

— Korxonamiz qiymati 2,5 million dollarga teng zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan. Bu yiliga 70 ming kvadrat metrga teng

xomashyo qazib olib, qayta ishlash imkonini beradi. Tayyor mahsulot mamlakatimizda qurilayotgan inshootlarga yetkaziladi. Mahalliy ehtiyojdan ortgan qismi xorijga eksport qilinadi, — deydi "Komfort inert servis" MCHJ direktori Shuhrat Allamurodov. — Korxonada qazib olish, toshlarni kesish, maydalash va ishlav berish kabi jarayonlar avtomatlashtirilgan. Bu tezkorlik, sifat va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi. Korxona tufayli yaqin atrofdagi qishloqlarda yashaydigan yuzlab odam ishi bo'ldi.

Keyingi yillarda qurilish sohasida pardozbop materiallardan keng foydalanilmoqda. Buni yo'l, ko'priklar qurilishlarida ham ko'rish mumkin. Bu esa mahsulotga ehtiyojni oshiradi. Shu sabab ushbu loyiha bozorda barqaror o'rni ega bo'lib boryapti. Shuningdek, korxona viloyat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishga hissa qo'shmoqda. U yangi ish o'rinlari ochib, import hajmini kamaytirishga xizmat qilyapti. Ha, mana shunday o'ziga xos loyihalar tufayli mamlakatimizda sanoatlashtirish jarayoni jadallashdi. Natijada mahalliy xomashyo qiymat janjiriga aylantirilmoqda.

— Surxondaryoning qulay geostrategik joylashuvi mintaqaviy savdo aylanmasini rivojlantirib, mamlakat iqtisodiyotining global ta'minat janjiriga integratsiyalashuviga xizmat qiladi, — deydi Surxondaryo viloyati transport boshqarmasi bosh mutaxassisi Farog'at Daminova. — Voha transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish, hududlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqishda ulkan strategik ahamiyatga ega. Shu bois, Surxondaryoda transport va logistika tizimi zamonaviy va samarali yechimlar asosida rivojlantirilmoqda. Bu borada Termiz tumanidagi "Termiz kargo" hamda Termiz xalqaro savdo markazlari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu markazlar eksport jarayonini tezkor, samarali va shaffof shaklda tashkil etishga xizmat qilyapti. Shuningdek, mintaqadagi tashqi savdo aylanmasini yanada jadallashtirishga hissa qo'shmoqda.

Termiz xalqaro savdo markazi Termiz daryo portidan 17, xalqaro aeroportdan 15, temir yo'l vokzalidan esa 12 kilometr masofada joylashgan. Bu logistika uchun juda qulay manzil.

— Termiz xalqaro savdo markazi "Karachi — Termiz — Toshkent — Qozog'iston — Rossiya" yo'nalishi bo'yicha xalqaro transport yo'lagining muhim bog'lovchi bo'g'inidir. Ushbu yo'lak orqali Hind okeani portlariga chiqish imkoniyati yaratilishi markazning geoiqtisodiy ahamiyatini yanada oshiradi, — deydi Termiz xalqaro savdo markazi tijoriy rahbari Farajon Abdurkarimov.

Bundan tashqari, "Termiz kargo" markazida xalqaro yul tashish tizimida qulay va shaffof sharoit yaratilgan. "Yagona darcha" tamoyili asosida bojxona rasmiylashtiruv, saqlash hamda logistika xizmatlari yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, "Termiz — Hayraton" yo'nalishi orqali Afg'oniston bilan yul almashinuvi barqaror amalga oshirilmoqda. Bu ham yurtimizda eksportchi korxonalar tovarini xorijdagi bozorlarga tez va sifatli tarzda yetkazib berishga alohida e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi.

— Bojxonada "Eksport — 3 qadamda" amaliyoti orqali ishlabarmonlarga to'g'ridan to'g'ri xorijiy bozorlarga mahsulot yetkazib berish imkoniyati yaratilgan, — deydi Termiz tashqi iqtisodiy faoliyat bojxona posti boshlig'i Muhiddin Normatov. — Bojxona xodimlari tadbirkorlarga yaqin ko'makchiga aylangan. Hozir ularga yuk deklaratsiyalarini inson omilisiz, hujjatlarining elektron nusxalari orqali avtomatik shakllantirishni tushuntiryapmiz.

Yaratilayotgan imkoniyatlar natijasida 2025-yil yanvar-avgust oylarida Surxondaryo viloyatida umumiy qiymati 319 million dollarga teng mahsulot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 155 foizni tashkil etdi. Jumladan, sanoat mahsulotlari eksporti 204 million dollarga yetib, 2024-yilning shu davriga nisbatan uch baravar oshdi. Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti esa 115 million dollarni tashkil etgan. Bu o'tgan yilga nisbatan 102 foizga teng degani. Islohotlar doirasida viloyatda strategik ahamiyatga ega avtomagistral, zamonaviy omborxona va logistika markazlarini qurish ishlari jadal sur'atda davom etmoqda.

Sarvar TO'RAYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

6

2025-yil
17-oktabr, 213-son

21-oktabr ~

O'zbek tili bayrami kuni

Poytaxtimizdagi Milliy matbuot markazida Mudofaa vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti hamkorligida “O‘zbek harbiy atamashunosligi: bugungi holati va istiqbollari” mavzusiga bag‘ishlangan davra suhbatini o‘tkazildi.

HARBIY ATAMALAR TARIXI CHUQUR ILDIZLARGA EGA

Prezidentimizning 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan tasdiqlangan 2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasida “ilmiy asoslangan yangi so‘z va atamalar muntazam ravishda rasmiy muomalaga kiritib borilishi” alohida qayd etilgan.

O‘zbek tili bayrami kuni munosabati bilan tashkil etilgan yuqoridagi tadbir ushbu vazifalar, shuningdek, yurtimizda harbiy soha va davlat tili siyosatining uyg‘unligi, xususan, istiqlol davrida harbiy atamalarni milliylashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar, ayni kunda soha oldida turgan dolzarb masalalar xususida fikr almashish uchun o‘ziga xos maydon vazifasini o‘tadi.

Joriy yilning avgust oyida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasi ilmiy asoslangan yangi so‘z va atamalarning bir turkumi (40 ta birlik)ni ko‘rib chiqib, ularni rasmiy muomalaga kiritish yuzasidan qaror chiqargan edi. “O‘zbek harbiy atamashunosligi: bugungi holati va istiqbollari”ga bag‘ishlangan davra suhbatida bu ishlar tizimli davom ettirilishi urg‘ulandi. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti mas‘ul xodimi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori Nodirbek Jo‘raqo‘ziyev sohada amalga oshirilayotgan metodologik ishlar va yangilangan harbiy atamalarni amaliyotga tatbiq etish jarayonlari haqida so‘z yuritdi.

Davra suhbatida filologiya fanlari nomzodi, dotsent Hamid Yodgorov “Istiqlol davri harbiy atamashunosligining tarixiy ildizlari” mavzusidagi ma‘ruzasi bilan ishtirok etib, o‘zbek harbiy atamalarining ildizlari qadimiy yodgorliklarga, xususan, “Devonu lug‘otit turk” va “Qutadg‘u bilig” kabi asarlardagi leksik birliklarga borib taqalishi, Sohobqiron Amir Temur davrida esa harbiy atamalar yanada takomillashgani haqida qiziqarli ma‘lumotlar bilan o‘rtoqlashdi.

Filologiya fanlari doktori Abdumannon Hasanov esa “Harbiy sohaga oid atamalarni o‘zbekchallashtirish masalalari” mavzusidagi ma‘ruzasida istiqlol davrida harbiy lug‘atchilik, termin yaratish va tarjima sohasidagi asosiy ilmiy yo‘nalishlar haqida to‘xtalib o‘tdi.



— Davlatimiz rahbarining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha, jumladan, harbiy sohasida ham davlat tilining imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishish bo‘yicha qator topshiriqlar belgilab berilgan, — deydi Mudofaa vazirining vatanparvarlik targ‘iboti, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar hamda yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi Olimjon O‘sarov. — Bugungi harbiy atamalar milliy manbalar asosida shakllantirilishi, ayniqsa, harbiy sohada qo‘llaniladigan ko‘plab atamalarining o‘zbek tilidagi muqobilini amaliyotga joriy qilish masalasi olimlarimiz va tilshunolarimiz oldidagi muhim vazifalardan biridir.

E’tirof etilganidek, mamlakatimiz rivojlanishning yangi davriga qadam qo‘ygach, tilimizga e‘tibor ham tubdan o‘zgardi. Davlat tiliga e‘tiborni mustaqillikka e‘tibor sifatida anglab, tilimizga ehtirom va sadoqatni ona vatanga ehtirom va sadoqat deb bilish tamoyili ilgari surildi. Natijada o‘zbek tilining davlat tili sifatida takomillashuvi borasidagi ko‘lamli va samarador ishlar yangi bosqichga chiqdi.

Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta‘minlash, bu borada, avvalo, o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiy. Shu jihatdan olib qaraganda, harbiy sohada davlat tilida ish yuritish madaniyatini kuchaytirish, harbiy atamalarda milliy uslubni ta‘minlash, zamonaviy harbiy fan talablariga mos yangi atamalarni muomalaga kiritish masalalari ham kechiktirib bo‘lmas vazifalar qatorida turadi.

Davra suhbatini yakunida harbiy atamashunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni yanada faollashtirish, Mudofaa vazirligi va Davlat tilini rivojlantirish departamenti o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytirish hamda davlat tilidagi harbiy atamalar lug‘ati va uslubiy qo‘llanmalarni yaratish vazifalari belgilandi.

Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



“O‘G‘IL BOLA MARD VA KUCHLI BO‘LISHI KERAK” YURTNING JO‘MARD QAHRAMONI MA‘RUFJON RAJABOVNI ESLAB

Yoshligimizda onam “Ertaga Bulung‘urga, tog‘anglarnikiga boramiz” desa, xursandchiligimiz ichimizga sig‘may ketardi. Go‘yo uzoqqa ketayotgandek tayyorgarlikni boshlardik. Bulung‘ur va biz yashab turgan Payariq tumani orasi juda uzoq emas, nari borsa bir soatlik yo‘l bo‘lsa-da, bolaligimizda biz uchun olis safardek tuyulardi. Tog‘alarimiznikida bir kundan mehmon bo‘lsak, kamida uch-to‘rt kun qolib ketar edik. Ayniqsa, Ahmad tog‘amnikida mehmon bo‘lish biz uchun o‘zgacha zavq bag‘ishlardi. Sababi tog‘amning kichik o‘g‘li Ma‘rufjon akam sport bilan muntazam shug‘ullanar va har safar borganimizda bizga ham mashqlar bajartirar, qiynalsak-da bu jarayonni yana sog‘inardik.

Bir safar o‘zi shug‘ullanib, bizga ham obdan mashqlar bajartirgach, hovlidagi turnikka boshlab bordi. Baland turnikka bo‘yim yetmagach, meni ko‘tarib, ositirib qo‘ydi. Ikki-uch marta turnikka tortilganimdan keyin boshqa kuchim yetmadi. — Tushma, yana harakat qil, — deya Ma‘rufjon akam tushishimga yo‘l qo‘ymadi. — Kuchim qolmadi, — dedim yig‘lagudek bo‘lib.

— O‘g‘il bola mard va kuchli bo‘lishi kerak, harakat qil.

U mashqlarda qattiqqo‘l bo‘lsa-da, o‘zi tabiatan mehribon edi. Qiynalganimni ko‘rib, ohista yerga tushirib qo‘ydi. Yelkamdan turtib, bir oz dakkli berdi.

— Ko‘proq mashq qilsang, ertaga o‘zingga foyda, ham kuchli, ham sog‘lom bo‘lasan. Bo‘pti, endi navbat boks mashg‘ulotiga, — deya bizni alohida jihozlangan xonaga boshladi.

Bu xonada turli sport anjomlari bilan birga



boks qo‘lqoplari, zarbadan maxsus himoya vositalari bor edi. Bizga turli usullarni erinmasdan o‘rgatar, uyga qaytganimizda bu mashqlarni takrorlashimizni tayinlardi. Mashg‘ulotlar ancha vaqtgacha cho‘zilar, Ahmad tog‘am yoki Shakarbonu yangam kelib, choyga chaqirmaguncha biz tin olmas edik.

Ahmad tog‘amning katta o‘g‘li To‘lqin akam o‘sha vaqtlarda harbiy bilim yurtini tugatib, harbiy qismlardan birida ofiser bo‘lib xizmatini davom ettirayotgan edi. Ma‘rufjon akam esa Samarqanddagi pedagogika va jismoniy tarbiya bilim yurtiga kirishga tayyorgarlik ko‘rardi. To‘lqin akamdek harbiy bo‘lishni orzu qilishini ko‘p takrorlardi. Pedagogika va jismoniy tarbiya

bilim yurtida o‘qigan vaqtlari ham uyiga mehmonga kelsak, ta‘tilga kelgan bo‘lsa, albatta, bizga mashq bajartirar, yana o‘sha turnikka ko‘proq tortilishga majburlar edi.

Oradan vaqt o‘tib, Ma‘rufjon akam ham muddatli harbiy xizmatga jo‘nab ketdi. Navbatdagi borishimizda Ahmad tog‘am bilan hovlidagi so‘rida ancha suhbatlashdik.

“Ma‘rufjon akam muddatli harbiy xizmatni tugatib kelganidan keyin o‘zi orzu qilganidek, shartnoma asosida harbiylikda qoldi. Har safar tog‘amnikiga borganimizda uning o‘sha sport xonasiga birrov kirib chiqaman, hovlidagi turnik oldida qiynalib mashq bajarganimizni eslayman. Ta‘til olib kelsa, ko‘rishga kelaman deya ko‘nglimga tugib, tog‘am va yangam bilan suhbatlashib qaytardim.

— Ma‘rufjon ham To‘lqin akang kabi harbiy bo‘lmoqchi, shuning uchun xizmatdan keyin shartnoma asosida qolmoqchi, — deya Ahmad tog‘am bir oz o‘yga cho‘mdi va so‘zida davom etdi. — Bolalar harbiyligni orzu qildi.



Oradan vaqt o‘tib, 2000-yil may oyida muddatli harbiyga chaqirildim va Toshkent viloyatining Qozog‘iston bilan chegara hududida xizmatni o‘tay boshladim. O‘sha yili avgust oyida mamlakatimizning janubiy sarhadi — Surxondaryo viloyatining tog‘li hududlarida yurtimizga suqilib kirmoqchi bo‘lgan bir guruh terrorchi jangarilar haqida eshitdik. Armiyamiz o‘g‘lonlari bu xavfni bartaraf etish uchun jangga kirishdi. Dushmanlar niyatiga erisholmadi. O‘sha vaqtda Ma‘rufjon akam Mudofaa vazirligining maxsus kuchlar batalyonida shartnoma asosida xizmat qilar edi. Afsuski, g‘anim bilan kurashda ko‘ksini qalqon qilib, mardlarcha halok bo‘lgan qahramonlar ham bor edi. Ularning nomi gazetalarda e‘lon qilinganida halok bo‘lganlar orasida katta serjant Ma‘rufjon Rajabov nomini o‘qiganim, qattiq tushkunlikka tushganim hamon yodimda. Tog‘am, ayniqsa, Shakarbonu yangamning sog‘inchi manguqlikka yuz tutganidan o‘kindim.

O‘sha vaqtda Ma‘rufjon Rajabovning rasmi gazetalarda e‘lon qilindi va jangovar harakatlarda dushmanlar bilan mardonavor kurashib, qahramonlarcha halok bo‘lgani haqida yozildi. Harbiy xizmatdalgimiz vaqtda “Vatanparvar” gazetasi doimiy hamrohimiz edi. Havaskorlik bilan yozgan she‘rlarimiz gazeta sahifalarida chop etilib turardi. Esimda, o‘sha yili Surxondaryo janubiy qismida jangarilar bilan jangda halok bo‘lgan Ma‘rufjon Rajabov va safdoshlari haqida yozgan “Siz jasur edingiz” she‘rim “Vatanparvar” gazetasida chop etildi. Ushbu she‘r va Ma‘rufjon akamning gazetadan qirib olingan rasmini harbiy xizmatdan esdalik albomimga yonma-yon yopishtirib qo‘yganman. Havaskorona yozilgan she‘r bo‘lsa-da, shu o‘rinda keltirishni joiz deb bildim.

SIZ JASUR EDINGIZ

Ko‘ksingiz Vatanga etdingiz qalqon, Sizdan g‘ururlanib yashagum, posbon, Muqaddas nomingiz yurakda har on, Siz jasur edingiz, o‘zbek o‘g‘loni, Ko‘kda nola qilar ona fig‘oni.

Sarhadda mardona turib, banogoh, G‘animlar o‘qiga uchdingiz, e voh! Yoringiz qon yig‘lar, chekar endi oh, Siz jasur edingiz, o‘zbek o‘g‘loni, Ko‘kda nola qilar ona fig‘oni.

Pokiza ruhingiz misli kabutar, Ortingizdan yig‘lar yoru birodar, Yurakni kemirib, bir anduh yotar, Siz jasur edingiz, o‘zbek o‘g‘loni, Ko‘kda nola qilar ona fig‘oni.

Yurtimning haqiqiy qahramonisiz, Siz mardlik yalovi, sharafo-shonisiz, Sadoqatning hech o‘lmas dostonisiz, Siz jasur edingiz, o‘zbek o‘g‘loni, Ko‘kda nola qilar, ona fig‘oni.

2000-yil, avgust
(“Vatanparvar” gazetasi).

Endigina 23 yoshni qarshi olgan va o‘z burchini bajarish chog‘ida qahramonlarcha halok bo‘lgan Ma‘rufjon Rajabov vafotidan keyin, 2000-yil 25-avgustda Prezident farmoniga ko‘ra “Jasorat” medali bilan taqdirlandi.

Bir necha yildan so‘ng Ahmad tog‘am ham olamdan o‘tdi. Oilaning katta farzandi To‘lqin Rajabov harbiy xizmatdan nafaqaga chiqqandan keyin mahallasidagi 18-umumiyy o‘rta ta‘lim maktabiga direktor etib tayinlandi. Hozir ushbu maktabda Ma‘rufjon Rajabov xotirasiga yodgorlik o‘rnatilgan. Ko‘chalarning biriga uning nomi berilgan.

— Ukam hamisha harbiylikka havas qilib, uyga kelganimda harbiy kiyimlarimni kiyib ko‘rardi, — deydi bir suhbatimizda To‘lqin akam. — Shuning uchun yoshligidan tinimsiz sport bilan shug‘ullanar edi. Shartnoma asosida harbiy xizmatni davom ettirishini istaganida qarshilik qilmadik. Aslida, vatanni himoya qilish har bir yurt o‘g‘lonining sharaflari burchi. Shu yo‘lda qahramonlik ko‘rsatib, burchini mardlarcha o‘tagan, yurtimizga dushman kirishiga yo‘l qo‘ymagan mard va jasur ukam bilan doimo faxrlanaman. U va halok bo‘lgan boshqa safdoshlari nomi hamisha yuragimizda yashaydi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan G‘alaba bog‘ida yangi yodgorlik — “Millat fidoyilari” monumenti barpo etildi. Ushbu yodgorlikda 196 nafar marhum harbiy xizmatchi va huquqni muhofaza qilish organlari xodimi orasida Ma‘rufjon Rajabov nomi ham zarhlab harflar bilan muhrlab qo‘yilgan. Davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, bu nomlar mamlakatimiz istiqloli, xalqimiz tinchligiga nisbatan real xavf tug‘ilgan paytda ular bir daqiqa ham o‘ylab o‘tirmay, jonajon vatanimiz himoyasi yo‘lida o‘zini qalqon qildi. Bu fidoyi harbiylar shu tariqa bugungi yangi O‘zbekiston uchun mustahkam zamin yaratib ketdi. Shu bois, biz ularning xotirasi, ruhi poklari oldida doimo qarzdormiz.

Har safar Toshkentga kelayotganimda Samarqand viloyatining Bulung‘ur tumaniga kirish ko‘chalaridan birida Ma‘rufjon Rajabov xotirasiga qo‘yilgan yodgorlikka ko‘zim tushadi. Uning siymosida o‘sha yoshligidagi mardligi, ko‘zlaridagi shijoati va jasorati gavdalanib turadi. Tog‘amnikiga yo‘lim tushsa, Shakarbonu yangam bilan suhbatlashib, hovlida hanuz saqlanib qolgan turnikka nazar solaman va beixtiyor Ma‘rufjon akamning so‘zlari qulog‘im ostida jaranglayaveradi: “O‘g‘il bola mard va kuchli bo‘lishi kerak”.

G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM MUASSIS: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi	Bosh muharrir: Salim DONIYOROV	Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-1046. 34751 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda. “SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.	Navbatchi muharrir: Dilshod Ulug‘murodov Musahhih: Sherzod Mahmudov Dizayner: Zafar Ro‘ziyev Manzilimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrizabz ko‘chasi, 85-uy O‘za yakuni — 21:27
--	--	---	---	---

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va e‘lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz

Web-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.